

O‘zbekiston Respublikasi  
Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza  
qilish davlat qo‘mitasi raisining  
2022 yil 28 sentyabrdagi 450-son  
buyrug‘iga  
5-ilova

**O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat  
qo‘mitasi, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari  
xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini  
tashkil qilish bo‘yicha  
YO‘RIQNOMA**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Yo‘riqnoma O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari (keyingi o‘rinlarda – Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari) xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha tavsiya va qo‘llanmalarni belgilab beradi.

2. Ushbu Yo‘riqnoma korrupsiyaviy harakatlarning oldini olish va ularni sodir qilishga xizmat qiladigan sabablarni bartaraf etish, xodimlarning huquqiy ongini oshirish va ularni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining boshqa ichki hujjatlariga qat’iy rioya qilish ruhida tarbiyalashga qaratilgan.

3. Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari xodimlarini etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitish (keyingi o‘rinlarda – O‘qitish) dasturlari va materiallari O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va ushbu Yo‘riqnomaga muvofiq ishlab chiqiladi.

**2-bob. O‘qitishning asosiy tamoyillari**

4. Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari xodimlarini o‘qitish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

**xolislik va ilmiylik** – etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi o‘quv materiallarni tayyorlash uchun mas’ul shaxslar ularning O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari, xalqaro standartlar hamda etika va korrupsiyaga qarshi kurashish nazariyasi va amaliyotiga doir ilmiy tadqiqotlar natijalariga muvofiqligini ta’minlaydi;

**amaliy jihatdan qulaylik** – Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari xodimlarini O‘qitish shakllari, usullari va materiallari amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi, real vaziyatlarga asoslanishi, shuningdek xodimlar tomonidan olingan bilimlarni tushunish darajasi va ularni aniq amaliy vazifalarni hal etishda qo‘llash imkoniyatini nazorat qilinishini o‘z ichiga olishi lozim;

**ketma-ketlilik va tizimlilik** – etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi o‘quv materiallari, shuningdek Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari xodimlarini o‘qitish tartibi izchil va tuzilmaviy-mantiqiy tizimni ifodalaydi. O‘qitish umumiy tushunchalar va voqeliklardan juz’iylariga, oddiydan murakkabga, boshlang‘ichdan mukammalga o‘tish asosida amalga oshiriladi;

**hammaboplilik** – O‘qitish Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari xodimlarining joriy bilimlari va ko‘nikmalarini hisobga olish, barcha xodimlar uchun tushunarli bo‘lgan o‘quv materiallirini shakllantirish;

**differensialangan yondashuv** – Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi o‘qitish aniq funksiyalar va tartib-taomillardagi korrupsiyaviy xavf-xatar natijalarini hisobga oladi. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko‘p moyil bo‘lgan lavozimlarni egallab turgan xodimlar korrupsiyaga qarshi qo‘srimcha ravishda maxsus o‘qitiladi;

**o‘qitish usullari va shakllarini doimiy ravishda takomillashtirish** – Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari o‘quv materiallarini ishlab chiqish, o‘qitish, shuningdek xodimlar tomonidan bilimlar o‘zlashtirilganini tekshirish vaqtida texnik va ilmiy taraqqiyotning innovatsion yutuqlaridan foydalanishga harakat qiladi.

### **3-bob. O‘qitishning ustuvor vazifalari**

5. O‘qitish shakllari va usullarini aniqlashda, shuningdek etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi o‘quv materiallarini shakllantirishda Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari xodimlarini etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitish uchun mas’ul shaxslar quyidagi ustuvor vazifalarga tayanishi lozim:

korrupsiya mohiyati, uning jamiyat hayotining turli sohalari, Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining funksiya va tartib-taomillarida paydo bo‘lish shakllari va o‘ziga xos jihatlari, sabablari, ijtimoiy jihatdan xavfli va zararli oqibatlari to‘g‘risida umumiy tasavvurni shakllantirish;

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati bilan belgilangan etika va korrupsiyaga qarshi xulq-atvorning ahloqiy qadriyatlari va Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining boshqa ichki hujatlariga qat’iy va so‘zsiz rioya qilishga asoslangan xulq-atvor modelini shakllantirish;

Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari xodimlarini amal qiluvchi korrupsiyaga qarshi kurash tamoyillari, talablari va tartib-taomillari bilan tanishtirish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kelib chiqishiga xizmat qiluvchi shart-sharoitlarni aniqlash va ularning oldini olish qobiliyatini shakllantirish, korrupsiyaviy xulq-atvor,

Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining etik xulq-atvor qoidalari buzilishiga nisbatan toqatsizlikni namoyon etish.

#### **4-bob. O‘qitishni ishlab chiqish va o‘tkazishga mas’ul shaxslar**

6. Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining Kadrlar tuzilmalari xodimlarni o‘qitish rejalarini tayyorlash, tegishli o‘quv materiallarini ishlab chiqish, o‘qitish, shuningdek Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarida bunday o‘qitishni monitoring va nazorat qilish uchun mas’uldir.

7. Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat bo‘limi (keyingi o‘rinlarda – Ichki nazorat tuzilmasi) Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari xodimlarini O‘qitish rejalarini tayyorlashda ishtirok etadi, korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi o‘quv materiallarni ishlab chiqadi, O‘qitish o‘tkazilishini muvofiqlashtiradi.

8. Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining Kadrlar bo‘limlari O‘qitish intizomi va unga doir axborotlar yig‘ilishini nazorat qiladi.

9. Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari Ichki nazorat tuzilmasi va Kadrlar bo‘limi tegishli tajribaga ega xalqaro yoki mahalliy Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarilar bilan tuzilgan shartnomalar (Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarida belgilangan tartibda) asosida o‘quv materiallarini tayyorlash hamda O‘qitishni amalga oshirish uchun uchinchi shaxslarni jalg qilishi mumkin.

#### **5-bob. O‘qitish turlari va shakllari**

10. O‘qitish quyidagi o‘quv dasturlarini ko‘zda tutishi lozim:

barcha xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi umumiy o‘qitish;

Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari xodimlarining etik xulq-atvori qoidalari bo‘yicha umumiy o‘qitish;

korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko‘p moyil bo‘lgan lavozimlar uchun korrupsiyaga qarshi maxsus o‘qitish;

Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi va rivojlanishi uchun mas’ul bo‘lgan xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi maxsus o‘qitish.

11. Umumiy korrupsiyaga qarshi o‘qitish va Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari xodimlarining etik xulq-atvori qoidalari bo‘yicha umumiy o‘qitish barcha xodimlari uchun majburiy hisoblanadi.

12. Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining barcha xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi umumiy o‘qitish amaliy yo‘naltirilgan bo‘lishi va quyidagi yangi bilimlarga ega bo‘lish yoki mavjud bilimlarni takrorlash imkoniyatini yaratishi lozim:

O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi qonunchiligi, Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari, jumladan o‘rnatilgan taqiqlar, cheklovlari, huquq va majburiyatlar, xizmat xulq-atvoriga qo‘yilgan talablar, Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari xodimlarining korrupsiyaviy harakatlari aniqlanganda harakatlar ketma-ketligiga doir ichki hujjatlarini bilish;

korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to‘qnashuvi va korrupsiyaga qarshi boshqa talablar sohasidagi huquqni qo‘llash amaliyotiga doir bilimlar;

olingen bilimlarni qo‘llash ko‘nikmalar, jumladan Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining turli faoliyat sohalaridagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash qobiliyati, Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarida o‘rnatilgan korrupsiyaga qarshi kurash choralarini amaliyotda qo‘llay bilish.

Korrupsiyaga qarshi umumiyo‘qitish materiallariga kiritish uchun mazkur Yo‘riqnomaga 1-ilovada keltirilgan mavzulardan foydalanish tavsiya etiladi.

13. Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari xodimlarining etik xulq-atvor qoidalari bo‘yicha umumiyo‘qitish, barcha xodimlar uchun amaliy yo‘naltirilgan bo‘lishi va Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarida qabul qilingan etika tamoyillari va qoidalariaga doir yangi bilimlarga ega bo‘lish yoki bor bilimlar takrorlanishini ta’minlashi lozim.

14. Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari xodimlari umumiyo‘qitish va xodimlarning etik xulq-atvori qoidalari natijalari bo‘yicha o‘rganilgan material qanchalik o‘zlashtirilgani va tushunilganligi hamda olingen bilim va ko‘nikmalarini amaliyotda qo‘llash imkoniyatini tekshirishga qaratilgan test sinovlari topshirishi lozim.

15. Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari xodimlari savollarning kamida 80 foiziga to‘g‘ri javob bergan taqdirda korrupsiyaga qarshi umumiyo‘qitish va xodimlarning etik xulq-atvori qoidalari muvaffaqiyatli o‘zlashtirgan hisoblanadi. Agar xodim savollarning 80 foizidan kamiga to‘g‘ri javob bergan bo‘lsa, u takroriy test sinovlarini test topshirgan kundan boshlab 5 ish kuni ichida topshirishi mumkin.

16. Korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko‘p moyil bo‘lgan lavozimlar uchun maxsus korrupsiyaga qarshi o‘qitish korrupsiyaga qarshi umumiyo‘qitishdan mustaqil (qo‘sishimcha) ravishda o‘tkaziladi.

17. Korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko‘p moyil bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarilarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyotiga muvofiq shakllantiriladi.

18. Korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko‘p moyil bo‘lgan lavozimlar uchun korrupsiyaga qarshi maxsus o‘qitish quyidagilar to‘g‘risidagi ma’lumotni o‘z ichiga olishi lozim:

korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko‘p moyil bo‘lgan aniq funksiya va tartib-taomillardagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va minimallashtirish usullari;

korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko‘p moyil bo‘lgan aniq funksiya va tartib-taomillardagi korrupsiyaning namoyon bo‘lish shakllari va turlari;

uchinchi shaxslar bilan o‘zaro aloqa qilishda korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko‘p moyil bo‘lgan aniq funksiya va tartib-taomillarga xos bo‘lgan korrupsiyaga qarshi talablar;

korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko‘p moyil bo‘lgan aniq funksiyalarni amalga oshirishda qo‘llaniladigan qo‘sishma talab va tartib-taomillarni o‘z ichiga oluvchi ichki hujjatlar.

19. Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalarini va tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi va rivojlanishi uchun mas’ul xodimlarni korrupsiyaga qarshi maxsus o‘qitish yiliga kamida bir marta malaka oshirish shaklida (seminar, trening va boshqa) korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi ekspertlarni jalb qilish, shuningdek bunday o‘qitishlarga ixtisoslashgan vakolatli uchinchi shaxslar (tashkilotlar) tomonidan tashkil etiladigan treninglarda ishtiroy etish orqali o‘tkaziladi.

20. Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalarini va tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi va rivojlanishi uchun mas’ul xodimlarni korrupsiyaga qarshi maxsus o‘qitish O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qonunchiligidagi o‘zgarishlar, korrupsiyaga qarshi tizimlarni shakllantirish va davlat organlarida korrupsiyaning oldini olish tadbirlarini amalga oshirish borasidagi ilg‘or xalqaro metodikalarni o‘rganishni o‘z ichiga olishi lozim.

21. Ushbu Yo‘riqnomaning 19-bandida ko‘rsatib o‘tilgan malaka oshirish va treninglardan o‘tish yiliga kamida 10 (o‘n) soatni o‘z ichiga olishi lozim.

## **6-bob. O‘qitish muddatlari va davriyligi**

22. O‘qitish O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalarini va tizim tashkilotlarining ichki hujjatlarida ko‘zda tutilgan majburiy malaka oshirish doirasida o‘qitish, uchinchi shaxslar bilan qo‘shma konferensiylar, yig‘ilishlar, simpoziumlar o‘tkazilishidan qat’iy nazar amalga oshiriladi.

23. Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalarini va tizim tashkilotlari xodimlari etika va korrupsiyaga qarshi kurash sohasida yiliga kamida bir marta o‘qitiladi.

24. Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari xodimlari quyidagi hollarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha yiliga bir martadan ko‘p o‘qitiladi:

xodim korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko‘p moyil bo‘lgan lavozimni egallab turgan bo‘lsa;

lavozimga tayinlanganda va rotatsiya qilinganda, agar shaxsning yangi lavozimi korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko‘p moyil bo‘lgan lavozimlar ro‘yxatiga kirsa;

Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarida korrupsiyaviy harakatlar bilan bog‘liq holatlар aniqlanganda yoki amalga oshirilayotgan funksiya/tartib-taomilning korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi ortganda;

Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari rahbari qaroriga muvofiq.

25. Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlariga ishga qabul qilingan yoki yangi lavozimga o‘tkazilgan xodimlar ishga kirgan yoki yangi lavozimga o‘tgan vaqtdan boshlab 30 kun ichida korrupsiyaga qarshi hamda xodimlarining etik xulq-atvori qoidalari bo‘yicha umumiy o‘qitilishi shart.

O‘quv sanasini belgilashda etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitishning tasdiqlangan yillik jadvali, guruhda bo‘s sh o‘rinlar borligi (kunduzgi o‘quv shakli uchun) va mazkur Bobning 22-23-bandlarida ko‘zda tutilgan o‘qitish muddatlari va davriyligiga amal qilish zarurati hisobga olinadi.

Keyingi korrupsiyaga qarshi umumiy o‘qitish va xodimlarining etik xulq-atvor qoidalari bo‘yicha umumiy o‘qitish barcha xodimlar uchun Kadrlar bo‘limi tomonidan yiliga bir martadan kam bo‘lmagan davriylikda belgilanadi.

26. Xodim korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko‘p moyil bo‘lgan lavozimni egallab turgani bilan bog‘liq holatlarda yoki xodim shunday lavozimga tayinlanganda maxsus korrupsiyaga qarshi o‘qitish etika va korrupsiyaga qarshi kurash sohasida o‘qitishning yillik jadvalida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

27. Kadrlar bo‘limlari har yili O‘qitish jadvalini tuzadi va 31-dekabrgacha uni Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari rahbariga tasdiqlash uchun taqdim etadi.

O‘qitish jadvalini tuzishda xodimlar tomonidan oldingi o‘qitish muddatlari hisobga olinadi.

O‘qitish jadvalida albatta o‘qitish kursi nomi, sanasi, shuningdek o‘qitish tayinlangan lavozimlar ko‘rsatiladi.

Tasdiqlangan jadvalga muvofiq Kadrlar bo‘limining mas’ul xodimlari o‘qitish boshlanishidan 10 ish kun oldin xodimlarni xabardor qiladi. Belgilangan muddatda o‘qish imkoniyati bo‘lmasa (kunduzgi o‘quv shakli uchun, masalan yuqori mavsumiy yuklama, kasallik varaqasi, rejorashtirilgan ta’til singari asosli sabablar), xodim o‘qish

boshlanishidan 5 (besh) ish kunidan kechiktirmay o‘qishni boshqa sanaga ko‘chirish maqsadida Kadrlar bo‘limini ogohlantirib qo‘yishi lozim.

### **7-bob. O‘qitish intizomini nazorat qilish va hujjatlarni saqlash**

28. Kadrlar bo‘limi Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurash sohasida o‘qitilishiga doir ma’lumotlarni yig‘ib boradi va ularni har chorakda Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining Ichki nazorat tuzilmasiga taqdim etadi.

Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining Ichki nazorat tuzilmasi olingan ma’lumotlarni tahlil qiladi (jumladan, o‘quv intizomi, xodimlar uchun qiyinchilik tug‘dirayotgan mavzular va test savollari) va tahlil natijalarini korrupsiyaga qarshi tizimning amal qilishi va rivojlanishi masalalari bo‘yicha doimiy hisobotlarga kiritilishini, shuningdek o‘quv materiallari korrektirovka qilinishini (zarurat tug‘ilganda) ta’minlaydi.

29. Xodim unga tayinlangan o‘quv yoki uning natijalari bo‘yicha test sinovlarini belgilangan muddatlarda o‘tmasa, Kadrlar bo‘limi rahbari bunday xodimning rahbarini unga nisbatan tegishli qaror qabul qilish maqsadida ogohlantiradi.

30. O‘qitish jadvali, yo‘qlama varaqalari, test natijalari, xodim o‘qiganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar Kadrlar bo‘limida saqlanadi.

### **8-bob. Yakuniy qoidalar**

31. Ushbu Yo‘riqnomma O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining ichki hujjatlaridagi o‘zgarishlar qiritilganda, korrupsiyaga qarshi o‘qitishni tashkil etish sohasidagi ilg‘or xalqaro amaliyot o‘zgargan taqdirda qayta ko‘rib chiqiladi. Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining Ichki nazorat tuzilmasi mazkur Yo‘riqnomaga o‘zgartirish kiritish uchun javobgar hisoblanadi.

32. Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari xodimi egallab turgan lavozimi, ish stoji, mavqeい va boshqa omillardan qat’iy nazar mazkur Yo‘riqnomaning tamoyillari va talablariga rioya qilish uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat  
qo‘mitasi, uning hududiy bo‘linmalari va tizim  
tashkilotlari xodimlarining etika va korrupsiyaga  
qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish  
bo‘yicha yo‘riqnomaga ilova

**O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, uning hududiy  
bo‘linmalari va tizim tashkilotlari xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish umumiy o‘qitishning  
TAXMINIY MAVZULARI**

Mavzu	Komponentlar
Korrupsiyaning tabiatি	Korrupsiya tushunchasi, uning shakllari va sabablari; Korrupsiyaning ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatidagi mazmuni; Jamiyatda korrupsiyaga munosabat.
Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari	Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik; Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashishga doir ichki hujjalari; Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro amaliyot.
Korrupsiyaga qarshi kurashish usullari	Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi elementlari, shuningdek muhim chora-tadbirlar sharhi; Manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish, aniqlash va tartibga solish; Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati; Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xodimlar va tarkibiy bo‘linmalarning majburiyat va vakolatlari; Ma’muriy tartib-taomillar va reglamentlardan foydalanish. Ma’muriy to‘siq va byurokratizmni bartaraf etish; Korrupsiyaviy harakatlar/ularni sodir etish xavfi yuzaga kelgan vaqtadagi harakatlar;

Mavzu	Komponentlar
	Korrupsiyaviy harakatlar to‘g‘risida xabar berish (xabarlarni uzatish kanallari, xabarlar mazmuniga doir Yo‘riqnomalar, xabarlarni ko‘rib chiqish tamoyillari).
Korrupsiyaviy xavf-xatarlar va tipik korrupsiyaviy harakatlar	xavf-xatarlar va korrupsiyaviy harakatlarning asosiy turlari; Nazorat-ruxsat berish funksiyalari va tartib-taomillari doirasidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar; Sovg‘alar va ishbilarmonlik mehmono‘sstligi belgilari berish/olishdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar; Fuqarolar, kontragentlar va uchinchi shaxslar bilan o‘zaro aloqalar bilan bog‘liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar; Xodimlarni tanlab olish va ishga qabul qilishdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar; Xaridlarni amalga oshirish bilan bog‘liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar; Turli xizmat turlari, funksiyalar uchun litsenziya berish, shuningdek litsenziya bitimlari talablari va shartlarini bajarish ustidan nazorat bilan bog‘liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar; Binolarni ijaraga berish bilan bog‘liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar; O‘zaro hamkorlik va tasarrufiy Qo‘mita, uning hududiy bo‘limnalari va tizim tashkilotlarilar faoliyatini muvofiqlashtirish bilan bog‘liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar; Tanlovlardan bog‘liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar; Turli hujjat turlari ekspertizasini o‘tkazish, shuningdek ular ijrosini nazorat qilish bilan bog‘liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar; Davlat nazoratini amalga oshirish bilan bog‘liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar; boshqa xavf-xatarlar.
Korrupsiyaviy harakatlar uchun javobgarlik	Korrupsiyaviy harakatlar uchun intizomiy javobgarlik; Korrupsiyaviy xarakatlar uchun jinoiy javobgarlik; O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaviy harakatlarga doir ishlari bo‘yicha sud amaliyoti sharhi.

<b>Mavzu</b>	<b>Komponentlar</b>
Korrupsiyaga qarshi kurashishda fuqarolik jamiyati roli	Jamoatchilik nazorati korrupsiyaga qarshi kurashish vositasi sifatida; Fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish; Korrupsiyaga qarshi jamoatchilik fikri va xulq-atvorini shakllantirish; Fuqarolik jamiyati institutlarining bilan o‘zaro hamkorligi.

